



# O'zMU XABARLARI

## ВЕСТНИК НУУЗ

## ACTA NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL  
1997-YILDAN  
CHIQA  
BOSHLAGAN

2023  
1/5

Ijtimoiy-  
gumanitar  
fanlar turkumi

Bosh muharrir:

I.U.MADJIDOV – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Y.S.ERGASHOV – f-m.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Ashirov A.A. – t.f.d., prof.

Balliyeva R. – t.f.d., prof.

Malikov A.M. – t.f.d., prof.

Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Mo'minov A.G. – s.f.d., prof.

Nishonova O.J. – f.f.d., prof.

Abdulayeva N.B. – f.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.

Utamuradov A. – f.f.n., prof.

Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Shirinova R.X. – fil.f.d., prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sa'dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: Z.A.PARDAYEV

ТОШКЕНТ – 2023

## MUNDARIJA

### Tarix

<b>Абдиназарова Ш.</b> Система образования Узбекистана в годы Великой Отечественной войны .....	4
<b>Davronova Z.</b> Millatlararo va xalqaro munosabatlarga sotsiologik yondashuvlarning metodologik tahlili .....	7
<b>Jo‘rəboyev N.</b> O‘zbek matbuotida sharq mavzusi (1917-1930 yillar) .....	10
<b>Bobojanov S.</b> O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va uning dinamikasi (2017-2022-yillar) .....	13
<b>Saidov J.</b> Jizzax vohasining karvon yo‘llari infratuzilmalari va ularda ko‘rsatiladigan xizmatlar .....	16
<b>Saydatov O.</b> XIX asr Buyuk Britaniyaning Markaziy Osiyodagi maqsadi .....	19
<b>Shukurov S.</b> Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy hamkorligi O‘zbekiston-Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Qozog‘iston misolida .....	22
<b>Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik</b>	
<b>Abdiyeva F.</b> Fan va tabiat bilan tanishtrish orqali maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish mezoni .....	26
<b>Абдузимова З.</b> Дilemma: экологическое право и антропоцентризм .....	29
<b>Abdullahayeva D.</b> Geoekologik madaniyat paradigmasi: ilmiy talqin, rivojlanishning yangi vektori .....	32
<b>Abduraimov J.</b> O‘qituvchilarning elektron ta’lim resurslaridan foydalanishining o‘ziga xos xususiyatlari .....	36
<b>Adilov B.</b> Bo‘lajak muhandislar loyihaviy-konstrukturlik kompetentligini rivojlantirishda umumkasbiy fanlarning didaktik imkoniyatlari .....	39
<b>Azimova M., Jurayeva L.</b> Chet tillarida gapirishga o‘rgatishda audio va video materiallardan foydalanishning ahamiyati .....	42
<b>Akramov J., Akmalov Sh.</b> Innovatsiya siyosiy tadqiqot obyekti sifatida .....	45
<b>Akramova D.</b> Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida moslashuvchanlik mexanizmlarini rivojlanirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	48
<b>Astanov T.</b> “Nuqtalar va ularning chizmada berilishi” mavzusini o‘qitish metodikasi .....	51
<b>Axrorova U.</b> Pedagogikada tizimli tahvilning tuzilmasi va funksiyasi .....	55
<b>Ashurova S.</b> Professional ta’lim tizimida modulli-kompetentli yondashuv va uni amalga oshirish texnologiyasining asosiy komponentlari .....	59
<b>Ashurova Sh.</b> Xorijiy til o‘qituvchisining ta’lim-tarbiya jarayonida etibor qaratiligi lozim bo‘lgan psixologik aspektlar .....	62
<b>Bazarbayev P.</b> 14-16 yoshli gandbolchilarda qo‘l panja kuchining antropometrik o‘zgaruvchanligi .....	65
<b>Baratov D.</b> O‘quv va amaliy mashg‘ulotlarda muhandislik ijodiyoti va loyiha faoliyatini rivojlanirish .....	67
<b>Bahrombekov B.</b> Jinoi sud ishlarini yuritishda davlat ayblovini quvvatlashning huquqiy va axloqiy muammolari .....	71
<b>Bekmurodova Y.</b> Xorij tajribalari asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojalantirish .....	75
<b>Berdiyeva S., Qulboboyeva M.</b> Maktabgacha yoshidagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojidagi dolzarb masalalar .....	78
<b>Jo‘rayev Y.</b> Avtomobil haydovchilarini o‘qitish usullarini takomillashtirish yo‘llari .....	81
<b>Ilyasov B.</b> 13-14 yoshli suzuvchilarining jismoniy tayyorgarligini tashkil qilish muammolari .....	85
<b>Ismoilov Sh.</b> Nogironlik tushunchasining ijtimoiy tahlili .....	88
<b>Kamilova M.</b> Oilada huquqiy tushunchalar shakllanishiga individual psixologik xususiyatlari ta’siri .....	91
<b>Komilova N.</b> Talabalarni zamonaviy didaktik vositalar asosida kasbiy tayyorlashning pedagogik asoslari .....	95
<b>Qoraboyev N.</b> Akademik Said Shermuhamedov hayoti va ijodini o‘rganish masalasiga doir .....	99
<b>Mamadjon Q. X.</b> Qo‘rquv – ijtimoiy-axloqiy fenomen sifatida .....	102
<b>Mammadli H.</b> Modernization in the context of global challenges and national interests .....	105
<b>Мухамеджанова Л.</b> Философская классификация концепций модернизации общества и нравственных ценностей .....	109
<b>Muxitdinova M.</b> Pedagogik amaliyot – bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetentsiyalarini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida .....	113
<b>Muhammadiyeva Z.</b> Kompyuter grafikasida elektron ta’lim resurslarini rivojlanishi .....	116
<b>Navruzov R., Iminjanov M., Jabbarov Z.</b> “Operator-12” geografik axborot tizimi (GAT) dasturida yangi topografik va taktik shartli belgililar klassifikatorini yaratishni istiqbollari .....	119
<b>Нарзикулова Ф.</b> Социально – психологические особенности профессиональной деятельности учителя в развитии мотивационно - ценностного компонента .....	123
<b>Nurimov O.</b> Harbiy doktrina mamlakatimiz mudofaa tizimining mustahkam poydevori .....	127
<b>Oblanazarov F.</b> Yosh futbolchilarda irodaviy sifatlarni tarbiyalash masalalari .....	130
<b>Pardayev S.</b> “Yangi O‘zbekiston” hayotida ma’naviy-ma’rifiy texnologiyalarni modernizatsiyalash yo‘llari .....	133
<b>Payanova M., Nasriddinova N.</b> Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish .....	137
<b>Pulatova O.</b> Pedagogning talabalar bilan muloqot olib borish yo‘llari .....	140
<b>Rasulova M.</b> Modulli ta’lim asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda metodologik madaniyatni shakllantirish texnologiyasi .....	143
<b>Raximov A., Mirzaeva N.</b> “Eshidim-ko‘rdim-bajardim” tamoyili asosida biologik fanlarni o‘qitish uslubiyati .....	145
<b>Raximov U.</b> 10-12 yoshli futbolchilarni tayyorlashning o‘ziga xos metodikasi .....	149
<b>Sabirova U., Kabirova M.</b> Ta’lim sifati innovatsion tizimini rivojlanirishning ijtimoiy omillari .....	152
<b>Salomova R.</b> Klasterli muhitini tashkillashtirish asosida informatik fanini o‘qitishni takomillashtirish .....	156
<b>Sattorova N.</b> Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodining o‘mi .....	159
<b>Safarov M.</b> Yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashishida jamoat tashkilotlari ta’sirining futurologik tahlili .....	162
<b>To‘rayev R.</b> Web dasturlashga oid kompetentsiyalarini shakllantirish omillari .....	166

Turayeva G. Shaxsda sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish omillari.....	169
Turdiyev U. Globallashuv davrida kiberxavfsizlik muammosining ayrim masalalari .....	172
Uralova M. Ijodiy-metodik faoliyat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi va kompetentligining muhim elementi sifatida.....	176
Usmonov B. O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'ttasidagi siyosiy va diplomatik aloqalar.....	179
Usmonova M., Yo'ldashaliyeva N. Biologiya fanlarini o'qitishda talabalarning kasbiy yo'nalishini rivojlantirish.....	182
Fayzullayeva G. O'qituvchilarни uzlusiz kasbiy rivojlantirishda jarayonga asoslangan o'qitishning (process-based learning) afzallikkleri.....	184
<b>Халикова Л., Анатольевна Б.Л. Роль физической активности в восстановлении здоровья людей разного возраста</b>	188
Xalimova M. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda axborot texnologiyalarining o'mni .....	192
Xolmirzayev Sh. Yuqori malakali akademik eshkak eshuvchilarning mashg'ulot vosita va yuklamalari hajmini takomillashtirish .....	195
Xudayberganov Y. Jismoniy agressivlikni tadqiq qilishning diniy-psixologik aspektlari .....	198
Xudaynazarov A. Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy jarayonlar subyekti sifatida .....	203
Xujayev M. Asrlarni oshib o'tgan tafakkur sohibi.....	207
Xo'jamberdiyeva Sh. Maktabgacha yoshdagи bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zaruriyati .....	210
Xurvaliyeva T. Maktabgacha yoshdagи bolalarda emotsiyonal zo'riqishni korreksiyalashda ertak terapiyadan foydalanish .....	213
<b>Xurramova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni milliy va innovations qadriyatlar uyg'unligi asosida tarbiyalashning pedagogik tizimi .....</b>	215
Xurramova M. Ta'lim mazmunini shakllantirishda germenevtik yondashuvni tashkil etishning shakli va metodlari.....	218
Xusanova J. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda boshgaruv faolligini rivojlantirish.....	221
Eshqobilova S. Maktabgacha yoshdagи bolalarning nutq o'strish faoliyatları jarayonida tafakkurini rivojlantirish.....	224
Yunusov M. Davlat fuqarolik xizmatida jamoatchilik bilan aloqalar rolini oshirish .....	227
<b>Filologiya</b>	
Abdullayeva N. Tilshunoslikda paremiologik lug'atlar tarixi.....	231
Абулқасимова Н. Фреймовый анализ эвфемизмов .....	234
Azimova M., Boqiyeva M. Til o'rganuvchilarning chet tilida so'zlashuv jarayonidagi qiyinchiliklari va uni bartaraf etish yo'llari .....	237
Anarboyeva I. Turli tizimli tillarda nominatsiyalarning o'r ganilishi .....	240
Asadov M. Adabiyotda "Kimsasizlik vaziyati"ning ijtimoiy-falsafiy va metaforik talqinlari .....	243
Atabayeva X. The concept of somatism, metaphors in the expression of somatisms .....	247
Ahmadov X. "Chig'atoy gurungi"da til va imlo masalasi .....	250
Axmedova G. Zamonaviy tilshunoslikda aforizmlar tasnifi .....	254
Akhmedova M., Rakimova O'. Character comparison through symbolism in Charlotte Bronte's Jane Eyre and Jean Rhys' Wide Sargasso sea .....	257
Begmatova R. Nutqda kooperatsiyani ta'minlashda solidarlik strategiyasining qo'llanilishi .....	260
Boynazarova N. Badiiy timsolning poyetik jozibasi .....	263
Bo'ronov N. Global axborot makonida feyk va dezinformasiyaning ijtimoiy ta'siri .....	266
G'ulomova R. Ayollar va erkaklar nutqida qarg'ish so'zlarining qo'llanilishi .....	270
Dalieva M. Conceptology as a branch of cognitive linguistics and its development .....	273
Jalilova L., Aminova M. Tarjimaning leksik-semantik muammoları .....	276
Ismoilova G. Iqtisodiy islohotlar va ma'naviy hayot uyg'unligi .....	279
Israilova S. Tezaurslarda leksemalar mohiyatining ifodalananishi .....	282
Kamolova F., Akhmedova M. Description of historical setting in "Nights at the circus" by Angela Carter .....	285
Karimova L. Nemis tilida ilova hodisasining german tilshunosligida o'rganilishiga doir ayrim mulohazalar .....	288
Karimova X. "Jasorat" semali leksemalar semantik, struktur xususiyatlari .....	291
Kurbanova N. Ingliz va o'zbek shifokorlari nutqidagi shaxsiy madaniyatning ta'siri .....	293
Mardihev B. Izhorlovchi qismning semantik tiplari haqida ayrim mulohazalar .....	296
Marufova Z. Mumtoz matnlarda ranglar vositasida ifodalangan estetik bahoning lingvopoetik talqini .....	299
Mirzayeva G. Verb-constructed phraseologisms in english and uzbek and their semantic characteristics .....	302
Mirsanov B. Nemis va o'zbek tillarida uy hayvonlari nomi bilan shakllangan dengiz hayvonlari .....	305
Nazarova G., Fayzullayeva N. Konsept termini va lingvokulturologiyadagi o'mi va ahamiyati .....	309
Nurmetova M. Peculiarities of using figurative and expressive devices of language in the process of speech .....	312
Rasulova M. Metafora va uning lingvistik tavsifi .....	316
Rashidova G. Ingliz tilini chet tili sifatida o'rganuvchilarga yozish ko'nikmasini o'rgatish: o'zbek o'qituvchilar tomonidan duch keligan qiyinchiliklar doirasida .....	319
Suyarova N. Metaphors in the novel "A farewell to arms" by E. Hemingway and their translations from english into uzbek .....	322
Tuxtasinova Z. Haqorat jarayonini nomlovchi leksik-frazeologik birliklar (o'zbek tili misolida) .....	325
O'rishev A. Words in context: enhancing vocabulary through reading and writing .....	328
Xajiyeva D. Erkin Vohidov she'rlarida xalq og'zaki ijodiyotidagi tush motivining qo'llanishi .....	331
Xasanova F. Maishiy nutqiy janrlar sotsiolingvistikasi .....	333
Xolmuminov I. "Algomish" dostonida qo'llanilgan o'xshatishlarning sintaktik-semantik tahlili .....	336
Hamrayev K. O'zbek hikoyasi genezisi .....	340
Elmurodov Y. Jahon adabiyotshunosligida ilmiy fantastika nazariyasiga yangicha qarashlar talqini .....	343



Xurshid AHMADOV,  
Buxoro Davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail:ahmadovxurshid2@gmail.com

TIQXMMI MTU Buxoro tabiy resurslarini boshqarish instituti dotsenti T. Safarov taqrizi asosida

### "CHIG'ATOY GURUNGI" DA TIL VA IMLO MASALASI

Annotatsiya

Ushbu maqola XX asr 20-yillarda "Chig'atoy gurungi" va uning imloviy o'zgarishlar borasida olib borgan faoliyati yoritilgan. Bunda Abdurauf Fitrat, Elbek va boshqalarning o'zbek yozuvni va imlosiga qo'shgan hissasi bayon etildi. Shuningdek maqolada arab yozuvni islohoti, dastlabki lotin alifbosini haqidagi qarashlar va bu islohotlarda Botuning tutgan o'mni haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Maqolada tilshunos hamda tarixchi olimlarning ilmiy meroslaridan keng foydalanildi.

Kalit so'zlar: "Chig'atoy gurungi", Abdurauf Fitrat, Elbek, Botu, til, imlo, yozuv, qurultoy, alifbo, arab alifbosi, milliy ziyorolar, gazeta, maorif.

### ПРОБЛЕМА ЯЗЫКА И ОРФОГРАФИИ В "ЧИГАТОЙ ГУРУНГ"

Аннотация

В данной статье рассказывается о деятельности «Чигатой Гурунги» и изменении его правописания в 20-е годы 20 века. Описан вклад Абдурауфа Фитрата, Эльбека и других в узбекскую письменность и правописание. В статье также приводятся сведения о реформе арабской письменности, взгляды на раннюю латиницу и роль Батыя в этих реформах. В статье широко использовано научное наследие лингвистов и историков.

**Ключевые слова:** «Чигатой Гурунги», Абдурауф Фитрат, Эльбек, Боту, язык, орфография, письмо, условность, алфавит, арабский алфавит, национальная интеллигенция, газета, образование.

### THE ISSUE OF LANGUAGE AND SPELLING IN "CHIGATOY GURUNG"

Abstract

This article describes the activities of "Chigatoy Gurungi" and its spelling changes in the 20s of the 20th century. The contribution of Abdurauf Fitrat, Elbek and others to Uzbek writing and spelling was described. The article also provides information about the reform of the Arabic script, views on the early Latin alp habet, and the role of Batu in these reforms. The scientific heritage of linguists and historians was widely used in the article.

**Key words:** "Chigatoy Gurungi", Abdurauf Fitrat, Elbek, Botu, language, spelling, writing, convention, alphabet, Arabic alphabet, national intellectuals, newspaper, education.

**Kirish.** 1917-yil Rossiyada bolsheviklar hokimiyatga kelganidan so'ng, Turkiston, Buxoro va Xivada milliy ziyorolar o'zlarining siyosiy qarashlarini namoyon eta boshladiilar. Lekin ko'p o'tmay ular siyosiy sohaga aralashmaslikka majbur etilganlar. Mana shunday milliy ziyorilardan Elbek, Cho'lpon, Shorasul Zurnun, Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon, G'ozzi Olim Yunusov va boshqalar Abdurauf Fitrat rahbarligida "Siyosiy sohaga aralashmaslik" sharti bilan 1919-yilda Toshkentda "Chig'atoy gurungi" nomli ma'naviy-ma'rifiy jamiyat tashkil qilishdi. Bu jamiyatning tashkil topishi va faoliyat yuritishida Fitratning roli juda katita hisoblanadi [1]. Fitrat 1917-1918-yillar Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan tashkil etilgan "Hurriyat" gazetasida muharrirlik qilardi, bu gazetaning faoliyati tugatilgach Buxoroga qaytadi, ammo Buxorodagi 1917-yilda Fitrat va Fayzulla Xo'jayev rahbarligida uyuşhtirilgan miting oqibatlari Fitratni Toshkentga kelishga undaydi va avvaldan rejalashtirgan "Chig'atoy gurungi" tashkilotini tuzishga kirishadi. Chig'atoy gurungini nomlashda Fitrat XIV-XV asrlarda eski o'zbek tili chig'atoy tili deb nomlanganini inobatga olib "Chig'atoy gurungi" deb nomlangan. Bundan kelib chiqadiki, Fitratni bu jamiyatni tuzishdan birinchi maqsadi eski o'zbek tiliga katta e'tibor qaratish bo'lgan, bundan tashqari madaniyat, san'at, adabiyot, tarix va boshqa sohalarni rivojlantirish "Chig'atoy gurungi"ning kelgusidagi dasturlariga kirgan. Fitratning o'zi bu tashkilot haqida shunday deydi: "Turk tillarini, turk adabiyotini birlashtirish shiori ostida ish ko'rildi. Maktablarda usmonli tili, usmonli

adabiyoti ona tili o'rnida qabul qilindi. Matbuotimizga biroz tatarcha ham qo'shib qoldi. Toshkentda ochilgan maktablarda ona tili saboqlarining ko'proq saatlarini usmonlicha egalladi. Samarqandda ochilgan birinchi muallimlar kursiga ona tili degan narsa kiritilmadi. 1918-yildagi Maorif sho'rosining bir majlisida shunday qaror qilingan edi: "Maktablarimizning boshlang'ich uch yilida ona tili o'zbekcha o'qitilsin, undan so'ng adabiy umumiylar turk tili o'qitilsin". Bularning adabiy umumiylar turk tili degani arabcha qatnashgan usmonlicha edi [2]. Manbalarning ma'lumot berishicha, XIX asr oxiri -XX asr boshlarida O'zbekiston hududidagi barcha jadidlar, ma'rifatparvar ziyorolar til va imlo masalasida ikki oqimga bo'lingan: o'ng va so'l oqimlarga. So'l oqimning asosiy rahbari Abdurauf Fitrat hisoblanib panturkizmga qarshi turib, eski o'zbek yozuvini isloq qilgan holda milliy o'zbek alifbosini yaratish uchun qattiq tirishdi. Bu borada "Chig'atoy gurungi" tashkilotining "Til va imlo to'dasi" sho'basi juda samarali faoliyat ko'rsatgan. Bu sho'baga dastlab Abdulhamid Cho'lpon rahbarlik qilgan bo'lsa, undan so'ng Elbek (taxallusi, asl nomi Yunusov Mashriq) rahbarlik qilgan. Fitrat o'zining "Tilimiz" degan maqolasida o'zbek tilining naqadar boy til ekanligini, uni yanada rivojlantrish kerakligini aytib o'tgan. Bu maqolada "Chig'atoy gurungi" tashkilotining "Til va imlo" sho'basining dasturiy maqsadlarini aytib o'tgan. Maqolada: "Arablar istilosidan so'ng Osiyoda yangi musulmonlar paydo bo'ldilar, arabcha o'rganishni o'zlariga vajob deb bildilar, o'qidilar, o'rgandilar, sevdilar. Bundan keyin forscha va turkcha arabcha

bo'g'uviga kirib qoldilar. Fors tilining holi butunlay yomonlashdi. Forslar o'z tillarini tashladilar. Yolg'uz kitoblarini emas, o'zaro yozuvlarini ham arabcha yozsa boshladilar. Lekin bu ish ko'p cho'zilmadi. Fors tili bir silkinish bilan o'zini arab bo'g'uvidan qutqara oldi. Fors tilining bu silkinishi Eron shoiri Firdavsiyning arabchalikka qarshi qaynag'an, qizig'on eronli bir millatchi edi. O'ttiz yil tirishdi, dongli «Shohnoma» kitobini yozib chiqardi. «Shohnoma» yozib chiqaruvdan Firdavsiyning ikkita tilagi bor edi: Eron ulusining arabdan sovitib, eronli tuyg'usini bermak va arab tilini Eronдан surib chiqarmoq edi» [3]. Bu bilan Fitrat mana forslar o'z ona tillari uchun kurashdilar va bu uchun buyuk fors ijodkori Abulqosim Firdavsiyini misol keltirib, uning "Shohnoma" asarini fors tili va imlosini rivojlantirgan mashhur asar ekanligini aytib o'tgan.

"Chig'atoy gurungi" o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yagan:

- tilimizning tugal, yuksak va chiroyli adabiy tili bor. Tilimizning adabiyligi arabiyligidan emas, o'zidadir. Shuni qayta uyg'otmoq kerak;
- tilimizni begona so'zlardan tozalash kerak;
- adabiyotimizni ma'naviy darajasini ko'tarish uchun oldindi buyuk alloma va shoirlarning o'lmasan va o'lmas asarlaridan foydalaniш va taraqqiy etgan mamlakatlarning til va imloviy jihatidan ijobi yangiliklari va qoidalari o'zlashtirib, shulardan foydalaniш;

- tilimizning qoidalari natarchadan yoki usmonli turkcha kitoblardan emas, tilimizning o'zidan olish kerak;

- xalq og'zida yurgan so'zlarni, xalq adabiyoti bo'lgan ertaklar, maqollar, matallarni, laparlarni olib tekshirish kerak va undagi so'zlarni ommalatish lozim;

- adabiyotni yozish uchun til va imloni o'zgartirish kerak; [4]

"Chig'atoy gurungi" tashkilotining "Til va imlo to'dasi" sho'basiga samarali rahbarlik qilgan Elbek XX asrda o'zbek tilshunosligiga katta xizmat ko'rsatgan. O'tgan asming yigirmanchi yillarda adabiyotga kirib kelgan deyarli hamma o'zbek shoirlari kabi Elbek ham Abdurauf Fitratni o'ziga ustoz deb bildi. "Elbek" taxallusini ham unga Fitrat taklif etgan edi. 1918–1920-yillarda yangi ochila boshlagan sovet maktablari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari yo'q darajada edi. Oktabr to'ntarishigacha jadid pedagoglari tomonidan yaratilgan o'quv adabiyotlaridan foydalaniш zararli deb topilgan edi. Shu munosabat bilan Elbekning yangi imlo qoidalari ishlab chiquvchilar uchun qo'llanma sifatida yaratilgan birinchi asari "Imlo masalasi" nomi bilan 1920-yilda bosmadan chiqdi. Unda muallif tilshunos-pedagoglar e'tiborini quyidagi muhim masalalarga qaratadi: "Endi biz qo'rqlaylik. Mumkin bo'lganicha, turkiycha yozganimiz kabi, begona so'zlarni o'zimizning tilimizga mosini topib muomalaga kirgizaylik. Biz avvaldan begona tildan kelgan so'zlarni arablardan o'rgandik. Ular o'z tillarida bo'laman harflarni o'z harflari bilan yozganchi kabi ("g" o'mida "j", "ch" o'miga "s", general – jeneral, chin – sin kabi). Bu yo'l allaqancha begona so'zlar arab kiyimi, arab qolipida yoziladigan bo'lib, o'z shakkalarini yoqotdilar: "geografiya" yerida "jug'rofiya" yozilgani kabi". O'sha davrida Fitrat, Cho'lponlar kabi Elbek ham maktablar faoliyatiga o'zining tilshunoslikka oid asarlarini bilan katta ta'sir ko'rsatgan [5].

Elbekning ona tili grammatisiga oid birinchi darsligi "Yozuv yo'llari (Birinchi bo'lak. Boshlang'ich maktablarning 2-, 3-, 4-bo'lim o'quvchilari uchun darslik)" nomi bilan 1921-yilda nashrdan chiqdi va u o'n bir darsni o'z ichiga olgan. Mazkur darslik o'zbek tili grammatisi va o'zbek tilidan darslik yaratishdagi dastlabki qadam edi [6].

Elbek o'zining "Imlo masalasi" asari yangi imlo qoidalari ishlab chiqishda va ona tilidan maktablar uchun darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda o'z davrida nazariy asos vazifasini bajardi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki,

hозирада ham yangi yozuv tizimiga o'tishimizda, yangi imlo qoidalari ishlab chiqishda bu asarning ahamiyati beqiyos. Elbek yangi imloning mukammal hamda xato va kamchiliklardan xoli bo'lishini istab, tanqidchilarni, tilshunoslarini munozarada faol ishtirot etishga da'vat etdi.

1921 yil 1-5 yanvarida Toshkentda bo'lib o'tgan birinchi o'zbek tili va imlosi qurultoyida Abdurauf Fitrat so'zga chiqib, maktab masalasining muvaffaqiyatlari hal etilishida imloning o'ziga yarasha o'mi bor ekanligini alohida ta'kidlaydi. Uning ma'rurasida quyidagi asosli fikrlar keltirilgan edi: "Maktab masalasining eng muhim rukni imlo masalasidir. Maktab masalasi qancha kengaysa, qancha yurusa, imlo masalasi ham shunga qarab kengayar, yurushar. Butun millatlar yozuni o'qimog'och ma'noni anglay olmaydilar. Ma'noni onglamoq uchun yozuni o'qiydilar. Biz esa ma'noni onglay olmasak yozuni o'qiyolmymiz. Eski yozumizda bir qadar qiyinlik, buzuqliqlar bor ekan, biz hukumatimizning maorif programmasidan boshqa millatlar qatorida foydalana olmaymiz, unlardan keyin qolamiz. Boshqalar bir yarim oyda savod chiqarsalar, biz yarim yilda chiqaramiz, boshqalar bir yarim oyda butun sinf bolalarining savodini chiqarsalar, biz yarim yilda bir sinf bolalarining yuzdan elliktasini ham savodini chiqara olmaymiz. Mana yangi imlochilarimizning mantiqi: bularni yangi imloga majbur qilg'on sabablar shulardir.

Turkiston ziyoilari 1921-yilgacha va shu yillarda ham yozuv va imloviy o'zgarishlarga yakdil bo'lamanlar. Botuning ma'lumot berishicha, 1921-yilgacha O'zbekiston hududida o'zbek adabiy tili masalasida uch tarmoq mayjud bo'lgan:

- 1)chig'atoy turkchasi;
- 2)janubiy turkch;
- 3)shimoliy turkch

Shu yillarda nashr etilgan gazeta, jurnallar va kitoblar bu oqimlarning hammasiga ham xizmat qilardi, ya'ni qaysi tilda bir narsa qaysi bir oqim kishilari qo'llida bo'lsa, shu tilda bosilardi [7].

1921-yilgi qurultoyda chig'atoy turkchasi e'tibor ko'proq qaratilib maqullandi. Chunki har bir millatni sotsialistik millat qilib tarbiyalashda bolsheviklar uchun bu ayni muddao bo'lib ko'rindi. Shu sababdan "Chig'atoy gurungi" bir muddat o'z holiga qo'yildi. Bunday erkinlikdan foydalaniб qolish uchun Abdurauf Fitrat va uning gurungoshlari chig'atoy turkcha imlosini rivojlantirish va arab,fors so'zlarini isloh qilishga qat'iy bel bog'ladilar. Bu kurashda ular janub turkchasi va qadimchifarning qarshiligi uchradiilar. Masalan, Botuning ma'lumotlariga e'tibor qaratsak, Muso Jodullo degan "qadimchi" qurultoyda "islom millatining birligi" uchun arab va fors so'zlariga qarshi chiquv zararli" deb baqirgan. Aslida jadidlar orasidagi "qadimchilar" nafaqat yozuv va imloviy islohotlarga, boshqa sohalarda ham o'zining qadimiy an'analarni buzmasdan islohotlar qilish tarafdiri ekanligi barchaga ma'lum. Lekin, bareha sohalarni o'z vaqtida isloh qilib turilmasa, nafaqat rivojanishdan orqada qolinishi balki, tanazzulga yuz tutilishini biz tarixdan ham hisozirgi davr voqeiyliklaridan ham yaxshi bilamiz.

O'tgan asrlar davomida mamlakat bo'ylab aniq belgilangan yozuv va imloviy qoidalari belgilanmagan edi. Milliy ziyoilari va rahbarlarni ana shunday maqsad XX asr boshidagi til va imlo qurultoylari o'tkazishga undadi. Elbek 1921 yilgi alifbo va imlo islohoti orqali mamlakat va millatning asrlar bo'yli o'z yechimini topmagan muammolarini hal qilish amalga oshirilganini yozadi: Yurtimizda shu paytgacha imlo qoidalari yoqligi sabab, yozuvlarimiz bir xil yozilmas edi, , har kimning yozg'ichi istagan yozqa burilib, istagan yo'l bilan ketkan va shul yo'l orqasida bir necha turli yo'lsiz yozuvlar yuzaga chiqib qolg'on edi. Bu yo'lsiz yozuvlarni bir to'g'ri yo'lga solib, bir negizdir yo'sin ostig'a olmoq kerakmidi. Buni eng oldin qayg'urgan va tushungan

"Chig'atoy gurungi" a'zolari bo'ldilar... Tabiiy, buning bilan bizning yozuvimiz anchagini yo'lga solindi. El bolalari anchagini bundan foydalandi... 1921-yil boshinda bo'lg'on til-imlo qurultoyi so'ngida imlomizga yana yangiliklar qo'shildi" [8].

1921-yilgi til va imlo qurultoyida, Hasanboy Jamolxonovning ma'lumotlariga qaraganda, o'zbek yozuvini lotin grafikasiga aylantirish haqida birinchi marta Botu tomonidan taklif kirdi. Lekin Botu "Chig'atoy gurungi" nomidan fikr bildirmagan bo'lishi kerak, chunki bu paytda Botu "gurung" tarkibida faoliyat ko'rsatmagan, 1921-1927-yillar davomida u Moskva davlat iqtisodiyot universitetida tahsil olgan. Lotin alifbosidagi o'zbek yozushi haqidagi qaror qabul qilinganida Botu O'zbekiston Maorif vaziri o'rnibosari vazifasida faoliyat yuritmoqda edi. Bundan ko'rinish turadiki, lotin alifbosining qabul qilinishida Botuning xizmatlari juda katta bo'lgan.

1921-yildagi til va imlo qurultoyi mamlakatning maorif sohasida inqilob bo'ldi, chunki arab alifbosini o'zbek yozuviga moslash va lotin alifbosidagi o'zbek yozuvining qabul qilinishida katta turki bo'ldi. Lekin, yuqorida aylib o'tilganidek o'sha davrda yangi imloning qabul qilinishiga qarshi turuvchilar Farg'ona va Samarqandda 1922-yilda qayta til va imlo qurultoyi o'tkazdilar. Bu anjumanda alfavit, imlo, orfografiya masalasi muhokama qilindi, lekin anjuman oxirida ishtirokchilar yakdil qaror qabul qilinishiga erisha olmadilar va shu sababdan alfavit va imlo masalasi Turkiston ACSR miqyosida amalga oshiriladigan bo'ldi, ya'ni, keyingi o'tkaziladigan anjumanda Buxoro xalq Jumhuriyat, Xorazm xalq Jumhuriyat Turkiston ACSR vakillari ishtirok etadigan O'rta Osiyo o'zbeklarning I qurultoyi o'tkazildi [9]. Majlis ishtirokchilar quydagilar edi:

- 1) Elbek (Toshkentdag'i o'zbek ilm jamiyatining raisi va o'zbek dorilfununining muallimi);
  - 2) Qayum Ramazon (Toshkentdag'i ishchi-dehqon fakultetining ona tili muallimi);
  - 3) Munavvar Qori (Vaqf' oliy sho'ro sho'basingning mudiri);
  - 4) Komil Alimov (Ma'orif komissariati hayat a'zosi);
  - 5) Shokirjon Rahimi (Eski shahar maorif noziri va o'zbek bilim sho'rosining a'zosi);
  - 6) Do'stmuhammadiyev (Turkiston ilm hayati a'zosi);
  - 7) Muhammad Keldiyev (Turkiston ilm hayati a'zosi);
  - 8) Professor Polvonov (Toshkentdag'i dorulilm sharqiyyada sharq tillari mutaxassis);
  - 9) Zehri (Samarqand ilm yurtining ona tili muallimi);
  - 10) Faktaruyevich (Turkiston davlat nashriyot mudiri).
- Buxoro Xalq Sovet Respublikasidan quydagilar ishtirok etgan:
- 1) Musajon Saidjonov Maorif noziri, 2) Ahror Sherzoda; 3) Muhammad Nazariy; 4) Abdurahim Ma'g'uriy; 5) G'ulom Qodir G'izoliy; 6) Mulla Umar [10].

Ushbu qurultoydagi qarorlariga ko'ra amaldagi alifbodan 8 ta harf olib tashlandi va yangi alifbo 25 ta harf etib belgilandi. O'rta Osiyo o'zbeklarning 1-, 2-, 3-qurultoylari sentabrda bo'lgan bo'lsa keyingi qurultoyer oktabr oyida bo'lib o'tdi.

1923 yilning 7- oktabr kuni til-imlo maslahatining 4 va 5-majlislari bo'lib o'tadi va quydagi qaror chiqariladi:

1. O'zbek alifbosi 20 harfdan iborat bo'lib, ularning 6 tasi bog'lovchilik xizmatini qilsin.

2. O'zbek imlosi asosan birgina shaklda bosh harflardan iboratdir: lekin re, ze, de harflari boshqalari oxirida

kelganda oxirida bir dum (quyruq) qo'yilsin. Shuning bilan bu harflar ikki shaklga molik bo'lurlar.

3. Yot so'zlarda he (hoyi huttiy), ayn harflari qoldirilib se, zol, sod, zod, to (itqi), zo (izg'i) harflari o'zbek alifbosidan chiqarilsin.

4. Tushirilib qoldirilgan harflar kerak bo'lsa, o'rta va yuqori maktablarda o'qitsinsin [11].

O'rta Osiyo o'zbeklarning I qurultoyi yakuniy qarorlari mohiyatani "Chig'atoy gurungi" g'oyalari bilan deyarli bir xil bo'ldi. Bundan ko'rindaniki "Chig'atoy gurungi" yuqorida aytiganidek O'zbekiston hududida 1917-1930-yillardagi imloviy o'zgarishlarning ma'naviy yo'lboshchisi bo'ldi desak to'g'ri bo'ladi.

1917-1930-yillardagi imloviy islohotlarni o'sha davr vaqtli matbuoti keng miqyosda yoritib bo'gan. Tarixchi Murodova Dilraboning ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning 20-yillarida alifboni o'zgartirish masalasi qator ziyojolar o'rtasidagi keskin tortishuvlarga sabab bo'lgan edi. Bu munozarali chiqishlar "Til, atama va imlo bahsleri" ruknida "Ishtirokiun", "Farg'ona", "Turkiston", "Qizil bayroq", "

Qizil O'zbekiston", "Pravda Vostoka" gazetalarini, "Maorif va o'qitg'uchi", "Alanga" jurnallarida aks etgan bo'lib, ma'rifatparvar ziyojolar "mushtarak turk alifbosi" g'oyasini mohiyatini o'z qarashlarida xalqqa ochib bergan edi [12].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Chig'atoy gurungi"ning XX asr boshida milliy imlo masalalaridagi qarashlarini hozirda ko'plab manbalardan bilib olishimiz mumkin. Avvalambor mazkur davr milliy ziyojolarning asarları, XX asrning birinchi yarmida bo'lib o'tgan qurultoyer qarorlarini davriy nashriyotlardan va arxivda saqlangan hujjatlar batatsil ma'lumot bera oladi. Elbekning "Yozuv yo'llari" asarida va Botuning Tanlangan asarlarida jamlangan "Til va imlo konferensiysi yakunları" qismidan "Chig'atoy gurungi"ning imloviy o'zgarishlarga bildirgan munosabatlari batatsil yoritilan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi kunda tarixchilar va filologlar oldiga milliy imlo va til masalalari va tarixiga oid dolzarb masalalar turgani barchamizga ma'lum. Shundan kelib chiqqan holda mazkur tadqiqotda filologiya fanlari olimlari asarlarini qiyosiy tahlil qilinib, tarixiy jarayonlar bilan moslashtirilgan holda o'rganildi. Tadqiqotda manbalar manbani tahlil qilish usulining metodologik printsipi asosida tadqiq qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida keltirilgan manbalar shuni ko'rsatadi "Chig'atoy gurungi"da til va imloviy o'zgarishlarga munosabat juda qizg'in kechgan. Abdurauf Fitrat tomonidan tashkil etilgan bu tashkilot milliy alifbomiz tarida alohida o'r'in tutgan. O'zbek alifbosining rivojlanishida alohida bosqich sifatida tarixda muhrlanib qoldi. Tadqiqot "Chig'atoy gurungi" tarkibidagi milliy ziyojolarning o'zbek milliy alifbosi masalalarida alohida yondashuvni natijasida milliy alifbo shakllantirildi va eski arab alifbosidagi ba'zi harflar olib tashlanib, uning o'miga muqqobil harflar belgilandi.

**Xulosa va takliflar.** Xullas, XX asr boshlarida o'zbek til va imlo masalasida juda katta ijobji o'zgarishlarni amalga oshirgan tashkilotlardan bittasi bu "Chig'atoy gurungi" bo'ldi. Bunday ijobji faoliyatlariga uning sho'basi sifatida faoliyat yuritgan "Til va imlo to'dasi" asosiy markaz vazifasini bajardi. Shuningdek, XX asr birinchi yarmida milliy ziyojolamiz o'zbek tili va imlosi masalasida juda ko'p jonbozliklar ko'rsatdilar. O'zbek tilining naqadar ulug' vor til ekanligi va o'ziga xosligini tarixan isbotlab, uning avvalgi bo'ligini qaytarishga urindilar. Bu borada ko'plab maqola, darslik, qo'llanmalar va ma'ruzalar qilgan Abdurauf Fitrat, Elbek, Botu, Cho'lpon va boshqalarining xizmatlari beqiyos hisoblanadi. Abdurauf Fitrat turkiy tiliga beqiyos hissa qo'shganini biz uning "Tilimiz" maqolasi, "Sarf" va "Nahv"

asarlaridan bilib olsak bo'ladi. Bu asarlarda klassik o'zbek tilining qirralari va uning imkoniyatlari yo'ritib, turkiy tilining grammatikasiga oid ko'plab yangiliklami namoyon etgan. Shu

asnoda, Fitrat XX asr o'zbek milliy tilshunosligiga samarali hissa qo'shgan olim sifatida iz qoldirdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Boltaboyev H. Jadidlar. Abdurauf Fitrat:risola.-Toshkent:Yoshlar nashriyoti uyi, 2022. – 8 bet(144 b).
2. Boltaboyev H. Jadidlar. Abdurauf Fitrat:risola.-Toshkent:Yoshlar nashriyoti uyi, 2022. – 8 bet(144 b).
3. Abdurauf Fitrat. Tilimiz. "Ishtirokiyun" ro'znomasi.1919-yil 12-iyun 32-soni.Ziyouz.com kutubxonasi.
4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2002.- 119-120 bet. (232 b).
5. Elbek. Yozuv yo'llari // Tanlangan asarlar. –Toshkent: Sharq, 1999, 274-b.
6. O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi,2021-yil 5-noyabr, 45 (4652)-son,"Jadidchilik harakati namoyandası Elbek hayoti va faoliyatiga bir nazar" maqolasi. Dolimov U.
7. Botu. Til va imlo konferensiyasi yakunlari //Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2004, 126-b
8. Eltazarov J.D. O'zbekistonda XX asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Samarqand: SamDU nashri, 2017 .-120 bet.
9. Eltazarov J.D. O'zbekistonda XX asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Samarqand: SamDU nashri, 2017 .-120 bet
10. Rashidov O. O'zbekiston hududida milliy ziyorilar va bolsheviklarning mafkura maydonidagi kurashi ( 1917-1938 yy.).- Toshkent:Muharrir nashriyoti,2022.-280 b.( 113 bet ).
11. Rashidov O. O'zbekiston hududida milliy ziyorilar va bolsheviklarning mafkura maydonidagi kurashi ( 1917-1938 yy.).- Toshkent:Muharrir nashriyoti,2022.-280 b.( 114 bet ).
12. Murodova D. Buxoro viloyati davlat arxivi fondlarida lotinlashtirish masalalari. "Kazakhstan and the Turkic world: actual problems in the field of social sciences" xalqaro ilmiy simpozium anjumani.-Nur-Sultan,2021.-250 bet, (456 bet)